
Farg'ona shahrida turkiyalik investor tomonidan 700 ish o'ringa ega bo'ladigan tekstil fabrikasini ochish rejalashtirildi

Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov "Sivas by teks" LTD rahbari Birkent Metin bilan tekstil sohasiga investitsiya kiritish borasida muzokara olib bordi.

Suhbat davomida turkiyalik investor Farg'ona shahriga 7 million AQSh dollarlik investitsiya kiritmoqchi ekanligini hamda 700 ta yangi ish o'rinli tekstil fabrikasi tashkil etish niyatida ekanligini bildirib o'tdi.

Muzokara davomida xorijiy investor ishlab chiqaradigan mahsulotlarini Yevropaga eksport qilish masalasiga to'xtalib o'tar ekan, tovarlarning jahon standartiga javob berishini inobatga olib, fabrikaga tikuvchilik sohasida Turkiyaning eng ilg'or mutaxassislarini jalb etmoqchiligini ta'kidladi.

Shuningdek, uchrashuv davomida qurilish ishlarini avgust oyiga boshlanishi rejalashtirilayotgani hamda 3 oy ichida fabrikaning to'liq ishga tushirilishi uchun barcha sharoitlar mavjudligi ta'kidlandi.

2022-07-23 02:04:42